

BUXORO VILOYATIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) olinishi mumkin.


Katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar instituti - ishlab chiqarishdan bo'shagan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori darajasi izlanuvchilari uchun oliy ta'lif muassasalari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif shakli.

Katta ilmiy xodim-izlanuvchi - oliy ta'lif muassasasiga yoki ilmiy-tadqiqot muassasasiga katta ilmiy xodim-izlanuvchi lavozimiga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs.

2019- yil oxiriga oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimi-tayanch doktoranturasi mavjud oliy ta'lif muassasalari 4 tani tashkil etmoqda.

Tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 135 kishini, ulardan ayollar esa 64 kishini tashkil etadi. Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari 67 kishini, ulardan 28 tasi ayollarni tashkil etadi. Bitiruvchilar soni 14 ta bo'lib ulardan 10 tasi ayollardan iborat. Jami bitiruvchilar sonidan dissertasiya himoya qilganlar 8 kishini tashkil etdi.

2020- yil 1- yanvar holatiga yoshi bo'yicha tayanch doktorantura institutlari izlanuvchilari soni



2019- yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari


2019- yil mobaynida jami 10 ta tashkilot ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan.

2019- yilda iqtisodiy faoliyat va ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi 14344,1 mln. so'mni tashkil etadi.

2019- yilda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar 11633,9 mln. so'mni tashkil etdi. Bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar soni jami 6480 tani tashkil etib ulardan 1 tasi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarildi.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bajargan jami xodimlar 2019- yilda 344 nafarni tashkil etdi.

2019- yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan xodimlar soni (kishi)



● Tadqiqotchi mutaxassislar ● Texniklar ● Yordamchi xodimlar ● Boshqalar




BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini bajargan, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda ilmiy daraja va ta'lim darajasi kesimida xodimlar jami 1825 kishini tashkil etib, ulardan 923 tasi ayollardan iborat. 1762 kishi oliy ma'lumotli, 53 kishi o'rta maxsus ma'lumotiga egadir. 127 nafar xodim bakalavr, 104 nafari esa magistr maqomini olgan.


Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlar



2019- yilda ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar hajmi (mln. so'm)



2019- yilda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlalmalariga xarajatlar



Buxoro viloyati
statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel: (65) 223-81-65
(71) 202-83-18

